

Lecture 11. Organizational forms of managing innovations in production.


Ma'ruza 11. Ishlab chiqarishda innovatsiyalarni boshqarishning tashkiliy shakllari.

XX asrni innovatsiyalar asri – ulkan yangiliklar, yangi mahsulotlar va texnologiyalar dunyoni yangi ko'rinishga olib keldi, innovatsion rivojlanish yangi iqtisodiyotni yaratdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirda innovatsiyalar kompaniyalar va barcha davlatlar uchun iqtisodiy rivojlanishning asosiy vositasi bo'lib qoladi.

Innovatsion jarayon iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida jahonda tan olingan va Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya kabi davlatlarning tajribasi bunga dalolatdir. Ilmiy texnika va ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai-nazardan, innovatsiya – bu g'oyalar, tadqiqotlar, izlanishlarni inson hayotida amaliy natija va foyda orqali fan-texnika yoki ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarda shakllanishidir.

Innovatsion faoliyat – bu innovatsiyalarni jhoriy etish jarayonidir va quyidagilarni o'ziga qamrashi mumkin:


- Yangi mahsulot va yangi texnologik jarayon;
- Yangi ehtiyoj va yangi bozorni tashkil etish;
- Boshqaruvning yangi jarayonlari va usullari, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning yangi yechimlari.



1-chizma. Innovatsion jarayonning tarkibiy sxemasi.

Amerikalik iqtisodchi Djeym Brayt fikri bo'yicha, innovatsion jarayon o'z tarkibiga fan, texnika, tadbirkorlik va boshqaruvni olishi bilan ajralib turadi. Uning mazmuni yangilikni yaratishdan iborat bo'lib, bir g'oyani yaratishdan to uning bozordagi muvaffaqiyatini ta'minlashgacha qaratilgan va shu bilan yaratish, ishlab chiqarish, savdo qilish va iste'mol qilish munosabatlarini o'ziga qamrab olgan.

Innovatsiyalar bir tomondan fan-texnika va bilimlar rivojlanishi (texnologiyalar bosimi), ikkinchi tomondan esa bozorning qoniqtirilmagan ehtiyojlari (bozor bosimi), ta'sirida yaratiladi. Ya'ni innovatsiyalar, texnika va texnologiyalar taraqqiyoti hamda o'sib borayotgan ehtiyojlar natijasidir.



2-chizma. Umumiy innovatsiya modeli.

Korxonada qaralsa, ushbu innovatsion faoliyat modeli quyidagicha ko'rinadi. Ishlab chiqarish zaruriyati (mahsulot yoki xizmatlarni yangilash, ko'rsatkichlarni yaxshilash, jarayonlarni takomillashtirish, ishlab chiqarish muammolari yechimini izlash va boshqalar) dan kelib chiqqan holda va an'anaviy yo'l bilan paydo bo'lgan muammoni hal etilishi mumkin bo'lmasa, yangilik yo'liga o'tiladi. Bu, albatta, o'z-o'zidan bo'lmaydi, ishlab chiqarishda mavjud holat va undan chiqib ketish talabi yangilikni qidirishga, muammo yechimini izlashda ijodkorlikka undaydi. Bu esa ma'lum tayyorgarlikni talab etadi, ya'ni yetarli maxsus va umumiy bilimlar darajasi, ijodkorlik, shu sohaga oid yangiliklardan xabardorlik, korxonada mavjud imkonlarni to'g'ri baholash va boshqalar.

Demak, ishlab chiqarishda innovatsiyaning umumiy modeli bir tomondan, ishlab chiqarishda paydo bo'lgan muammoni yechish talabi va ikkinchi tomondan, xodimlarning yetarli layoqatliligi, ijodkorliligi, korxonaning imkoniyatlariga bog'liqdir.

Har bir faoliyat asosida, albatta, maqsadlar bo'lishi kerak. Mahsulotni yangilash yoki yaxshilash, yangi texnologiyalar joriy etib harajatlarni kamaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, qo'shimcha foyda olish innovatsion faoliyatning maqsadidir.

Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari boshqaruviga oid 2 tur innovatsiyalarni ajratish mumkin.

1. Texnik va texnologik innovatsiyalar. Yangi mahsulot yaratish va mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liqdir, asosiy o'zgarish obyekti – moddiy narsalar, texnologik qurilmalar va ishlov usullar.
2. Boshqaruv innovatsiyalari. Innovatsiya jarayoni o'zgarish obyekti bo'lib xodim, boshqarish obyekti va subyektlar munosabatlaridir. Shu jumladan, texnologik innovatsiyalar yangilik darajasi – yaxshilash va radikal, ishlatilish joyi va natijasi bo'yicha quyidagicha ajrata olinadi.

Turi	Yangilik darajasi		Ishlatilishi	
	Radikal	Yaxshilash	Natija	Joyi
Mahsulot innovatsiyasi	Ishlab chiqariladigan mahsulotdan kuchli farq qiladi. Yangilikni ishlatish yo'li bilan yoki ma'lum texnologiyalarni yangicha ishlatishda	Mahsulotning sifat yoki narx ko'rsatkichlari yaxshilanadi. Yangi texnik vositalar ishlatilishi yo'li bilan erishiladi.	Yangi innovatsion mahsulot	Bozorda
Jarayon innovatsiyasi (texnologik)	Yangicha ishlab chiqarish usullari, texnologik o'zgarishlar va natijada ishlab chiqarish samaradorligini o'sishi yoki yangi mahsulot yaratishga zamin yaratish	Mavjud ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish	Boshqa innovatsion mahsulot	Ishlab chiqarish jarayonida

1-jadval. Texnologik innovatsiyalar

Innovatsion faollik va iqtisodiyotni global axborotlashuvi kompaniyalar va korporatsiyalarning butun xx asr davomida shakllangan tashkil qilish tamoyillarini tubdan o'zgartirib yubordilar. Bu davrda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari xodimlarining muvofiqlashtirilgan harakatlari asosiy rolni o'ynaganlar, iqtisodiy jarayonlarni – ilmiy izlanish bilan band bo'lgan kreativ shaxsni o'qitishdan tortib to yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni shakllantirish va virtual kompaniyalarni tashkil qilishgacha – ko'proq takomillashtirish ularning asosiy vazifasi bo'lib qolgan. Birinchi marta innovatsion faoliyatning tashkiliy shakllari o'zini – o'zi boshqaruvchi ishlab chiqarish shakllarida paydo bo'lgan. Xuddi shu yerda kreativ (ijodiy) salohiyatdan ko'proq foydalanish, texnologik va sotsial taraqqiyotni jadallashtirishga imkoniyat bor.

Yangi tashkiliy shakllarni o'ziga xosligi faol raqobatni sheriklik va shaxsiy ijodiyot bilan birlashtirish zarurligi bilan belgilanadi. Vaqtincha qisqa muddatli bitimlardan tortib yirik moliya – sanoat guruhlarigacha bo'lgan tadbirkorlik assotsiatsiyalari va firmalar aro birlashmalar bunday o'zaro hamkorlikning yangi tashkiliy shakllari bo'lganlar.


Ilmiy g'oyalarni ishlab chiqish va uni keyinchalik materiallashtirishda yangi tashkiliy tuzilmalar – innovatsion markazlar katta rol o'ynaydi. Bular o'z ichiga universitetlar va ilmiy ishlab-chiqarish firmalarini o'z ichiga oluvchi yangilik kiritishlarning vujudga kelgan texnologik faol kompaniyalaridir. Bu modelda innovatsion biznes keng innovatsion infratuzilma ichidagi barqaror o'zaro aloqalarni qo'llab-quvvatlaydi, axborotlarni norasmiy almashish va yangiliklarni sotishkanallarini shakllantirishning rivojlangan tarmog'iga ega.

Innovatsion markazlar tarkibida quyidagilar mavjud:

- Texnoparklar (ilmiy, ishlab chiqarish, innovatsion, biznes-park va h. k.)
- Texnopolislar;
- Fan va texnologiyalar mintaqalari;
- Innovatsiya inkubatorlari.

Texnopark iyerarxik tuzilmasini qurish asosida modulli tamoyil yotadi. Uni qurishda foydalaniladigan birinchi element inkubatoridir. Texnopark har biri innovatsion xizmatlarning ixtisoslashtirilgan majmuasini taqdim etuvchi markazlarning yig'indisidan iboratdir.


Texnopolis – bu texnoparklar, inkubatorlar yig'indisi va shahar hayotini ta'minlovchi turli-tuman tuzilmalarning majmuasidir. Fan va texnologiyalkar mintaqasi o'z ichiga texnopolislar, texnoparklar va inkubatorlarni, hamda ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi shoxlanib ketgan infratuzilmani olishi mumkin.



3-chizma. Texnoparkning tuzilishi.

Texnopolislar o'zlari joylashgan mintaqalarni rivojlanishiga shakllantiruvchi sifatida ta'sir ko'rsatadilar va quyidagilarga yordam beradilar;

- Innovatsion faollikni oshirish;
- Innovatsion infratuzilmalarini shakllantirish;
- Yangiliklarni tijoratlashuvini jadallashtirish;
- Sanoatni tarkibiy qayta qurish;
- Yangi ish joylarin tashkil qilish;
- Innovatsion faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish, innovatsion sohani institutsiallashtirish (qandaydir yangi ijtimoiy institutlarni ta'sis etish)
- Sanoatni rivbojlanishining ko'p ilm talkab qilishini kuchaytirish;
- Iqtisodiyotning innovatsion qobiliyatini takomillashtirish.



4-chizma. Texnopark ta'sisчилari va ular tomonidan yechialdigan masalalarning bazaviy chizmasi.

Inkubatorlarning ajralib turgan alomati va tashkiliy xususiyati shundan iboratki, ular aniq tovarni emas, mustaqil xo'jalik subyektini ishlab chiqish bilan shug'ullanadilar. Shunday qilib, yangi kichik innovatsion firmalar texnoparklarning "mahsuloti" bo'ladi. Inkubatorlarda har xil ishlab chiqarish birliklarini bo'lishi firmalarga ularni ushlab turishga xarajatlarni ancha qisqartirish imkoniyatini beradi.

Biznes parkda firmalarning kengroq turlari ishtirok etadi. Inkubatorlarda tashkil qilingan, unga tegishli bo'lgan va texnologiyalarni topshirish va ilmiy-maslahat xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mualliflik firmalari, inkubatorlardan chiqqan mustaqil firmalar; yirik korxonalariga tegishli bo'lgan, parka yirik sanoatning fan, kichik va o'rta biznes sohasidan o'tgan bozorning har xil talablarini hajmi va vaqti bo'yicha qanoatlantiruvchi ilmiy tadqiqotlar natijalarini o'zlashtiruvchi firmalar. Ushbu nuqtai nazardan uni tashqi muhitga moslashishi tizimning muhim xususiyatidir. Turli tuman talabni qanoatlantirish uchun korxonalar kichik seriyali va noyob mahsulotni ishlab chiqaradi, uning kattaq iasmi buyurtmaga, shartnomaga mo'ljallangan. Bu boshidan ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi va xaridor o'rtasidagi barqaror aloqalarning yuqori darajasini belgilab beradi. Innovatsion markazlar, texnoparklar, texnopolislar misolida innovatsion infratuzilmaning ahamiyati ayniqsa sezilarlidir, u fanni bozor muhitiga kirishi, ilmiy-texnik sohada tadbirkorlikni rivojlanishi va yangiliklarning iqtisodiy samaradorligini oshishiga yordam beradi. Innovatsiyalarning tijorat muvaffaqiyatini ehtimoli maxsus institutlar, tashkilotlarni shakllanishi va yagona innovatsion sohada shakllangan innovatsion jarayonni ta'minlash tizimlari tufayli keskin oshadi.

Innovatsion sohada innovatsion infratuzilma markaziy rol o'ynaydi, u innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun mablag'larni samarali taqsimlash va xizmatlar ko'rsatishga ko'maklashuvchi sharoitlar yaratish uchun tashkiliy, moddiy, axborot, moliya va kredit bazasidan iborat bo'ladi.